

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERATURE STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES

2024 Vol. 3 (4)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Islomjon Yoqubov, Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Aidaxon Bumatova, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Ra'noxon Xudjayeva, Ilhom Aslonov, Yulduz Ziyayeva, Zulfiya To'xtaxadjayeva, Ma'suma Obidjonova, Parviz Izzatillayev, Nilufar Do'stmamatova, Zebiniso Bekmuradova, Ozoda Gulyamova, Manzura Abjalova, Nargiza Yusupova.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi №308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – filologiyaning ayni sohalarini qamrab olgan "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

MUNDARIJA

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Abdumajid Madraimov, Elmira Hazratqulova

Xalqaro turizm istiqboli: "Bobur merosi" mashrutining ilmiy-amaliy asoslari.....6

Ilhom Aslonov

"Boburnoma" da temuriy hukmdorlar obrazi: Sulton Husayn mirzo 12

Fayzullayeva Nigina

"Kambag'allar" romanida semantik va struktur qatlamlar uyg'unligi..... 20

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Muxtasar Abdullayeva

O'zbek adabiyotida maqollarning qo'llanilishi va ularning ingliz tilga tarjimasi 26

Madinaxon Xayitbayeva

Teatr terminlarining qiyosiy tahlili 36

Fariza Ruzimurodova

Tarjima mohiyati xususida ayrim mulohazalar 45

Nilufar Djalilova

Aleksandr Dyuma asarlari tarjimasida stilistik vositalar..... 53

Nurhon Fazilova, Vasila Bozorova

Film nomlari tarjimasi: lingvistik aniqlik va madaniy moslashuvni muvozanatlash 61

Farangiz Abdumuratova

Siyosiy matnlardagi iboralarning tarjima xususiyatlari 66

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA TERMINSHUNOSLIK

Zebiniso Bekmuradova

O'zbek va fransuz maqollarida xiazmatik konstruksiyalarning lingvokulturologik tahlili 72

Elbek Kurbanov

Sud ekspertizasi metodlari, lingvistik ekspertiza metodlari va ularning ilmiy metodlar bilan bog'lanishi..... 77

Dilnoza Jurabayeva, Shaxnoza Jalolova

Ingliz va o'zbek tillarida aspektual shakllarning lingvomadaniy xususiyatlari chog'ishtirma tadqiqi..... 82

Shavkatillo Mamajonov

Ingliz va o'zbek tillarida "taom" leksik-semantik maydonini tashkilovchi birliklarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari..... 92

Zilola Islomova

O'zbek tiliga o'zga tillardan o'zlashgan so'zlar va ularning tarixi..... 99

CHOG'ISTIRMA TILSHUNOSLIK VA LUGATSHUNOSLIK

O'zbek va fransuz maqollarida xiazmatik konstruksiyalarning lingvokulturologik tahlili

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada sintaksisning eng ko'p qo'llaniladigan ritorik figuralaridan biri xiazm haqida fikr yuritiladi. Xiazm termin sifatida hozirgi kunga qadar kam o'rganilgan bo'lsada, ritorik figura sifatida antik davrdan beri tanila boshlaganligi, ayniqsa, diniy matnlarda keng qo'llanganligi nazariy fikrlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek xiazmlar nafaqat stilistik vosita sifatida tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlarida yangicha qarashlarni shakllantirishga balki, lingvokulturologiya sohasida ham ayrim manbalarning yuzaga kelishiga zamin yarata olishi, o'zbekcha va fransuzcha paremik birliklar tahlili asosida ko'rib chiqilgan, hamda kerakli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *xiazm, ritorika, maqollar, lingvokulturologiya, stilistik figuralar, antimetabola, antimetalepsiya.*

Kirish

Xiazm barcha tillarga xos bo'lgan universal lingvistik hodisa bo'lib, u XIX asrdan boshlab lingvistik termin sifatida tilshunoslikka kirib kelgan. Mazmuni jihatdan farqli bo'lgan ikki jumla shunday ketma-ketlikda qo'yiladiki, birinchi jumlagi qarama-qarshi bo'lgan ikkinchi jumla birinchisining tarkibidan kelib chiqadi. Bunday almashish antik dunyo olimlari tomonidan antimetabola yoki antimetalepsiya deb ham nomlangan.

Xiazm nafaqat bir asar matnida, balki alohida muallifning butun ijod kontekstida ham uchramasligi mumkin. Biroq ko'plab yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida antiteza, takror, sintaktik parallelizmdan, ya'ni ma'no jihatdan murakkab xiazmlar, hatto undan ham ko'proq xiazmatik birikmadan foydalangan va buni muvaffaqiyatli rivojlantirishga erisha olgan. [1: 20]

¹ Bekmuradova Zebiniso Erkinovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: bekmuradovazebo@navoiy-uni.uz

ORCID ID:0000-0003-4314-1009

Iqtibos uchun: Bekmuradova, Z.E. 2024. "O'zbek va fransuz maqollarida xiazmatik konstruksiyalarning lingvokulturologik tahlili". *O'zbekiston til va madaniyat*, 3 (4): 72-76.

Xiazm badiiy asarlarda kam uchraydigan shakl bo'lishiga qaramasdan, universaldir, chunki unda ma'lum bir til tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Umuman olganda, xiazmning tuzilishi shaffof va har qanday tuzilishdagi tillarda o'xshash va boshqa tillarda ham xiazmni shakli jihatdan bimalol farqlashimizga imkoniyat yaratadi, ya'ni xiazmni butunlay notanish tilda ham vizual tarzda aniqlash oson. [2:132]

Xiazm mukammal tarjima qilinadi. Ushbu tuzilishda turli tillar o'rtasidagi farqlar juda aniq namoyon bo'lmaydi, lekin ularda umumiy bo'lgan narsa, Yakobsonning fikriga ko'ra, dunyo tillarining yagona modeli turli xil versiyalari sifatida talqin qilishga imkon beradigan narsa "inson tili"dir. [3:99]

Xiazm universaldir, chunki uning funksiyalari chegaralarni, stilistik cheklovlarni bilmaydi. U so'zlashuv nutqida, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodida, maqollar, matallar, tez aytishlar, topishmoqlar, xazil-mutoyibalar shaklida qo'llanadi. Xiazmlar asosan maqollarda ko'proq uchraydi va tillararo madaniyatni yuzaga kelishida vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqollar har bir millatning milliy o'zligi, mentaliteti, go'zal qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Shunday ekan, milliy adabiyotda badiiy bo'yoqdorlikni, muallif konsepsiyasini ifodalash uchun paremik birliklardan unumli foydalaniladi. Jumladan, chog'ishtirilayotgan tillardagi maqollarda xiazm hodisasi tadqiq qilinganda o'xshash va farqli jihatlari yuzaga chiqadi. Ifodasi va qisqaligi bilan ajralib turadigan maqollar murakkab axloqni tushunishni osonlashtirish, mavhum haqiqatlarni konkretlashtirish, sabablarni yana-da tushunarli hamda kulgili ko'rsatish uchun nutq figuralaridan foydalanadi.

Bu kabi janrlarda xiazmning qo'llanishi tillararo madaniyatni, ya'ni lingvokulturologik jihatlarini ham namoyon qilishga yordam beradi. Ma'lumki, lingvokulturologiya lisoniy madaniyat bo'lib, bu har bir millatning turmush-tarzi, urf-odatlarini, an'analarida o'z aksini topadi. Masalan, fransuz va o'zbek millatining bir-biriga o'xshamaydigan va biri-birini takrorlamaydigan o'z madaniyati borki bu quyidagi kabi misollarda o'z aksini topadi hamda shu kabi misollarda o'zbek va fransuz mentalitetiga xos ayni jihatlar ko'zga tashlanadi.

Kelin bo'ldim – qaynonamga yoqmadim. Qaynona bo'ldim – kelinimga yoqmadim. [4:255].

O'zbek xalqi uchun qaynona-kelin munosabatlari har doim birlamchi hisoblanadi hamda bu munosabatlar natijasida yuqoridagi kabi maqollarning yuzaga kelish parametrlari shakllanadi. Darhaqiqat, qaynona va kelin munosabatlarida doimo nizolar yuzaga keladi, natijada kelin bo'lganida qaynonasiga, qaynona bo'lganda esa keliniga yoqmasligini ko'rsatib,

jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga ishora qilinadi. Shu maqolning davomi sifatida yana bir misolni keltirish mumkin.

**Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r,
O'g'ling yomon bo'lsa, keliningdan ko'r [4:265].**

Ushbu misolning ham asl mohiyati qaynona-kelinga borib taqaladi. Sababi agar o'g'il odil bo'lsa, ya'ni ushbu misrada aytilganidek "**Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r**", onasini ham, ayolini ham bir xil darajaga qo'ysa, birini biridan kam ko'rmasa, hech qachon bu ayollar o'rtasida muammolar kelib chiqmasligini ushbu maqol misolida ko'rish mumkin. Maqolning keyingi misrasida esa "**O'g'ling yomon bo'lsa, keliningdan ko'r**", butunlay teskari mulohaza ifodalangani asrlar davomida shakllangan shu kabi maqollarda o'z aksini topgan.

Yaxshi xotin olib bersang yigitga,
Ming kuni bir kun bo'lib o'tar.
Yomon xotin olib bersang yigitga,
Bir kuni ming kun bo'lib o'tar. (maqol)
Erdan – xato, xotindan – uzr,
Xotindan – xato, erdan jazo. (maqol)

Yuqoridagi xiazm asosida qurilgan ikkala maqollarda ham ayni o'zbek xalqiga xos jihatlar, ya'ni er-xotin munosabatlari stilistik figuralar orqali yanada ohangdorroq hamda jozibaliroq eshitiladi va bir qarashda anglab olishga imkoniyat yaratadi. Nafaqat badiiy bo'yoqdorlikni balki er-xotin o'rtasidagi munosabatlar shu darajada qisqa fikr orqali ifodalanganini, hamda butun bir oilaviy muammolarni ikki misra orqali to'laligicha yoritilganini ko'rish mumkin.

Darqariqat maqollar har bir millatning turmush tarzi, yillar davomida shakllanib kelayotgan urf-odatlarini, xalqning tajribalari asosida yuzaga keladi.

Sinonimiya asosida qurilgan xiazmatik birikma misolini fransuz xiazmatik birikmasini Tamise (Temza) va Seine (Sena) gidronimlari qatnashgan omonimiya asosida ko'ramiz:

- J'ai inventé un système pour la purification de l'eau qui va contenter à la fois les gens de Londres et ceux de Paris. Suppose un siphon qui réunit et la Tamise et la Seine...

- Alors?

- Alors, les eaux de *Seine* seront *tamiseés* et les eaux de la *Tamise* seront *saines*.

Bu yerda so'z birikmalari o'yinida omofonlar ham (Siene – saine "sog'lom, toza") omograflar va hatto paronimlar ham (tamiser fe'lidan olingan

sifatdosh tamisè “tozalangan”, na semantik, na etimologik jihatdan hech qanday bog‘liqligi bo‘lmagan Temise “Temza” bilan bog‘lanadi) aniqlangan.

Shuningdek bu misolda nafaqat omonimik, paronimik jihatlari balki fransuz madaniyatiga xos jihatlar ham ko‘zga tashlanganini ko‘rish mumkin. Sena va Temza daryolari haqida fikr yuritilganda bu faqatgina Fransiya davlatidagi ulkan daryolarni yodga soladi.

Buyuk fransuz yozuvchisi Per Kornel o‘z asarida keltirib o‘tgan, har ikkala misolda ham aynan fransuz mentalitetini aks ettiruvchi xiazmatik konstruksiyalarni ko‘rish mumkin. [5] Masalan:

Qu'on parle mal ou bien du fameux cardinal
Ma prose ni mes vers n'en diront jamais rien :
Il m'a fait trop de *bien pour en dire du mal*,
Il m'a fait trop de *mal pour en dire du bien*.

Vers sur le cardinal de Rechellieu composés à l'occasion de la mort du cardinal. (Pierre Corneille, Poésies diverses)

Yuqoridagi misolda ham faqatgina Fransiya davlatida joriy qilingan lavozim (Cardinal – papa maslahatchisi) haqida gap boradi va bu boshqa davlatlarga xos bo‘lmagan tomonlarini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari bir qancha fransuzcha misollardan kelib chiqib, aytish mumkinki, xiazmlar nafaqat stilistik vosita sifatida tilshunoslikning ko‘pgina yo‘nalishlarida yangicha qarashlarni shakllantirishga balki, lingvokulturologiya sohasida ham ayrim manbalarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. O‘zbek paremik birliklarining fransuz paremiyalariga hech qanday aloqasi yo‘qdek tuyulsa-da, tahlillardan so‘ng ba‘zi farqli va mushtarak jihatlari borligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa o‘zbek maqollarining xususiyatlari, xuddi fransuz maqollarida bo‘lgani kabi, faqat bir tekislikda kesishmaydi, ya‘ni parallellik, binar struktura va qiyosiy tuzilish kabi shakllari mavjud. Shuningdek, har bir millatning o‘zligi, mentaliteti, azaliy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradigan maqollar lingvokulturologik jihatdan chog‘ishtirilganda tabiiy ravishda jiddiy tafovut borligi ham ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlar

Mamaziyyayev. O.X. 2004. O‘zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol.fan.nom.diss. Farg‘ona.

Bekmuradova Z.E. 2022. "Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o‘zbekcha tarjimalari". O‘zbekiston til va madaniyat. 132-136.

Якобсон Р.Я. Работы по поэтике: Переводы /Сост. и общ. ред. М.Гаспарова. – М.: Прогресс, 1987. – 351 с.

4. Ўзбек халқ мақоллари (Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусокулов, Б.Саримсоқов; масъул муҳар.: Ш.Турдимов) – Т.: Шарқ, 2003. – 512 б.
5. <https://citations.ouest-france.fr/citations-proverbe-francais-6937.html>

Linguocultural analysis of chiasmatic constructions in uzbeki and french proverbs

Zebiniso Bekmuradova¹

Abstract

This article discusses the chiasm, one of the most frequently used rhetorical elements of syntax. Although it has been little studied as a chiasm, it has been known since Antiquity as a figure of *ri qadar*, and its wide economy, especially its use in religious texts, has been theoretically analyzed. As a national stylistic tool, it helps to process new views in many areas of linguistics, in linguocultural studies, based on a paremic analysis of Uzbek and French.

Key words: *chiasm, rhetoric, proverbs, linguistic culture, stylistic figures, antimetabola, antimetalepsia.*

Referances

- Mamaziyyayev. O.H. 2004. O'zbek she'riy nutqida xiazm va gradatsiya. Philol.fan.nom.diss. Farg'ona.
- Bekmurodova Z.E. 2022 yil "Fransuz folklor xiazm qurilishiga o'zbek tiliga tarjimalari". O'zbekiston tili va madaniyati. 132-136.
- Jeykobson R.Ya. Raboty poetike: Perevody /Sost. erkaklar obshch. ed. M. Gasparova. - M.: Taraqqiyot, 1987. - 351 b.
- O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musokulov, B. Sarimsoqov; mas'ul muxarrir: Sh. Turdimov) – Т.: Sharq, 2003. – 512 b.
- <https://citations.ouest-france.fr/citations-proverbe-francais-6937.html>

¹ Zebiniso E. Bekmuradova – Doctor of Philosophy in Philology, PhD. Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: bekmurodovazebo@navoiy-uni.uz

ORCID ID:0000-0003-4314-1009

For citation: Bekmuradova, Z.E. 2024. "Linguocultural analysis of chiasmatic constructions in uzbeki and french proverbs". *Uzbekistan: Language and Culture*, 3 (4): 72-76.